

O'SMIR YOSHDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNING NAMOYON BO'LISHI HAMDA BOLALAR HAYOTIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

*Yusupova Sohiba Saparboyevna
Xorazm viloyati Qo'shkopir tumani
54-maktab amaliyotchi psixologi*

Annotasiya: O'z-o'zidan ma'lumki agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablar mavjud. Tadqiqotchilar agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga subektiv omillarni keltirib o'tganlar. Bular: tarixiy xotira, qasd olish udumlari, ayrim diniy oqimlar (fanatizm, ekstremizm g'oyalari), ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, televideniye), ayrim siyosatchilarning individual axloqiy jihatlarining bevosita ta'sir etish imkoniyatlarini ta'kidlaydilar.

Kalit so'zlar: agressiya, o'smir, jismoniy agressiya, bilvosita agressiya, verbal agressiya, tarbiya, xulq, ijtimoiy omillar, oila, maktab, ruhiy holat, tushkunlik, psixik jarayonlar, muloqot.

KIRISH

O'smirlarda agressivlikning shakllanishiga quyidagi shaxs xususiyatlari ta'sir qiladi:

- tarbiyaning muvozanatlashmagan shakllari: o'z-o'ziga haddan ziyod past baho berish, yuqori darajada impulsivlik, spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste'mol qilish, kompyuter o'yinlariga tobelik, tavakkalchilikka tayyorlik holatlari, o'zo'zini himoya qilish hislarining chegaralanganligi;

- xulqiy omillar: o'z vaqtini maqsadsiz o'tkazish, maktabdagi darslarni sababsiz qoldirish, o'zlashtirish darajasining pastligi, erta jinsiy aloqalarga kirishish va hokazo;

- ijtimoiy omillar (OAVning psixologik ta'siri, jamiyatdagi udum va marosimlar, ota-onaning xulqiy buzilishlarga ega ekanligi, oila ijtimoiy mavqeining pastligi, tarbiyachilarning o'zgarishi (o'gay ota, o'gay ona va hokazo); - o'smirning xulqiy og'ishlar shakllangan do'stlar bilan yaqin ijtimoiy aloqalarni o'rnatishi (taqlid fenomeni);

- ichki oilaviy nizolar (ota-onaning ajrashishi, ikkinchi nikohdagi farzandlar, o'smirning o'zlashtirishiga ota-onalardan tomonidan o'smir qobiliyatlari, qiziqishlari inobatga olinmagan holda haddan ziyod yuqori talablarning qo'yilishi.

Disfunktsional oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarda agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishi ehtimoli funksional oilalarda tarbiyalanayotgan oilalardagi o'smirlarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlangan. Oilada o'smir erkinliklarini haddan ziyod cheklash, yoki aksincha, ota-ona tomonidan surunkali befarqlik ham agressiv xulq ko'rinishlarining shakllanishga olib keladi.



Agressiv xulq oilada o'smirning erkinliklari haddan ziyod chegaralanganda yoki unga haddan ziyod erkinliklar berilganda ham shakllanishi mumkin. Agar o'smir oilada barcha ehtiyojlarining tezlik bilan qondirilishiga o'rganib qolgan bo'lsa, tengdoshlari jamoasida uning ehtiyojlariga to'sqinlik qilganlarga nisbatan agressiv munosabat bildiradi. Oilada emotsional inkor etilganlik holatlarida ham o'smirlar agressiv xulq ko'rinishlari bilan o'zlariga e'tiborni qaratishga harakat qiladilar. Ota-onaning o'smir xulqidagi o'zgarishlar sababini izlashi yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv tarzda hal etishi asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Agar o'smirning oila a'zolari muntazam tarzda o'zaro nizolar, baqiriqlar orqali ta'sir o'tkazish asosida muammolarini hal etishga o'rgangan bo'lsalar, boshqa ijtimoiy vaziyatda o'smir aynan o'zini shunday tutishga intiladi;

- shaxsiy muammolar (fiziologik va psixologik xarakterdagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi o'smirlarda jinsiy rivojlanish xususiyatlari – pubertat davri xususiyatlarining namoyon bo'lishi);

- o'zining tashqi ko'rinishidan norozi bo'lish – «Terzit kompleksi» (kattalar tomonidan noadekvat idrok qilinishi).

O'smir o'zini kattalardek his etishida unga bolalar kabi munosabatda bo'lish yoqmaydi;

- o'smirdagi tafakkurning tanqidiyligi – kattalar hatti-harakatiga nisbatan shubha bilan qarash, ularda o'rnatilgan axloqiy meyorlarga nisbatan e'tiroz hislarining shakllanishga olib keladi;

- o'smirda nisbatan ma'lum bir ijtimoiy tamg'alarining bosilishi (o'qituvchilar tomonidan o'smirda o'zlashtira olmasligi, tarbiyasizligi, u bilan gaplashish befovdaligini ta'kidlash);

- ijtimoiy omillar (jamiyatda muammolarni kuch ishlatish orqali hal etilishi haqidagi g'oyasining o'rnatilganligi, maktablardagi o'quv sinflarning haddan ziyod to'raligi, maktabdan haddan ziyod charchash, asabiylashish). Agressiv xulq shakllanishida «agressor» va «qurbon» rollari ajratiladi.

Maktabdagi «agressorlar» tengdoshlari va kattalarga nisbatan o'zlarini yuqori tutadilar, ruhiy og'riqqa nisbatan og'riqni his etmaydilar, o'zlarini dominant tutadilar, yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni jismoniy kuch ishlatish orqali hal etadilar. Bu ko'proq o'g'il bolalarda kuzatiladi. «Agressorlar» affekt holatlarida o'z-o'zini yetarli darajada idora eta olmaydilar. O'zlarini tengdoshlariga nisbatan kuchliroq his etib, o'zlaridan kuchsiz bo'lganlarni «qurbon» sifatida tanlaydilar. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda nafaqat «agressorlar», balki «qurbonlar» ham pedagog va psixologlar e'tiborini talab qiladi. Ya'ni ushbu toifadagi o'smirlar «ijtimoiy autsayder» atamasi bilan nomlanadi. Ushbu o'smirlar passiv va namoyishkorona turlarga ajratiladi. Passiv tipdagi «qurbonlar» bosiq, hadiksirovchi, qo'rqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar. Maktabda, mahallada o'rtoqlari kam bo'ladi. Ikkinchi guruh namoyishkorona tipdagilar uchun «agressorlar»ga xos bo'lgan xususiyatlar namoyon bo'ladi. Bu o'smirlarda bir vaqtning o'zida agressiya va qo'rqish holatlari namoyon bo'lishi asosida impulsiv, agressiv xulq ko'rinishlari bilan ulardagi qo'rqish va xavotirlanish holatlari birgalikda namoyon bo'lishi, doimiy tarzda kurashga tayyorlik holatlari kuzatiladi. O'zlarining xulqi bilan ular atrofdagilarning noroziligi, agressivligini jalb qiladilar. Bir tomondan, xulqi bilan atrofdagilarning agressiv munosabatlarini o'zlariga jalb qilsalar, boshqa tomondan kuch ishlatish usuli orqali muammolarni hal etishga moyil bo'ladilar. Ushbu toifadagi o'smirlarni tengdoshlari, kattalar yoqtirmaydilar. Agressivlik o'z-o'zidan paydo bo'ladigan holat emas. Ko'p hollarda psixologik muammolarni hal etishda ojizlik holatlari ta'sirida shakllanadi: Charchash. Agar o'smir haddan ziyod charchagan bo'lsa, psixik agressiya psixik resurs imkoniyatlari cheklanganligi oqibatida shakllanadi.

Agressiya atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «aggređi» – «tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar agressiyaga salbiy yondashuv qilsalar (X. Delgado, A.A. Bass, L.M. Semenyuk, G. Parens, A. Bandura, R.Uolter, Y.Mojginskiy), ayrimlari agressiyani (L.Bender, D.Richardson, R.Beron) ijobiy baholaydilar. Olimlar

agressiyaning quyidagi turlarini keltirib o'tadilar. Bular: Jismoniy agressiya – boshqani qo'rqitishdan tortib, to'g'ridan-to'g'ri jismoniy kuch ishlatish, unga jismoniy va ma'naviy og'riq yetkazish. Bilvosita agressiya – boshqa insonga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotlarni tarqatish (mish-mish, kalaka qilish va hokazo), o'z-o'zidan aynan boshqa insonga qaratilmagan holda agressiyaning namoyon bo'lishi (mushti bilan stolni urish, eshikni taqillatib yopish va boshqalar). Verbal agressiya – salbiy hislarni baqirish, janjal qilish, so'kish, haqoratlash, tahdid va boshqa usullar orqali bildirish. Arzimagan qo'zg'ovchi ta'sirga ham qo'pollik, terslik, emotsional qo'zg'alish bilan javob berish. T.G. Rumyanseva, I.B. Boyko agressiyani ijtimoiy xulq ko'rinishi deb hisoblaydilar. O'z-o'zidan ma'lumki agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablar mavjud. Tadqiqotchilar agressiyani keltirib chiqaruvchi sabablarga subektiv omillarni keltirib o'tganlar. Bular: tarixiy xotira, qasd olish udumlari, ayrim diniy oqimlar (fanatizm, ekstremizm g'oyalari), ommaviy axborot vositalari (ayniqsa, televideniye), ayrim siyosatchilarning individual axloqiy jihatlarining bevosita ta'sir etish imkoniyatlarini ta'kidlaydilar. Davrlar bo'yicha o'rganilganda eng ko'p agressiyaga moyillik o'smirlik davriga to'g'ri kelishi aniqlangan. Agressiya o'smirlarda yuzaga kelgan ijtimoiy vaziyat, hodisalar ustidan o'ziga xos nazorat qilishning maqbul usuli sifatida qabul qilinadi. G'. B. Shoumarov fikriga ko'ra, o'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlarini: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun-mohiyati ham o'zgaradi. Bu davrda o'smir hayoti, ruhiyati, organizmining fiziologik jarayonlari, uning ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat vaziyatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi.

XULOSA

O'z-o'zini negativ idrok etish. «Men yomon odamman. Shuning uchun o'zimni shunday tutaman». Tobora yomonlik hissi o'smir uchun chuqur, ma'lum bir hatti-harakatni bajarishga psixofiziologik tayyorlik xolati – ustanovkaga aylanadi. Bu toifadagi o'smirlarda arzimagan, yumshoq tanqid ham psixik og'riqning shakllanishiga olib keladi. Agar o'smir insonlar bilan munosabatlarda salbiy tajribaga ega bo'lsa, u ertaroq himoyalanihga intiladi. Ko'p hollarda uning hayotiy tajribasida shunga o'xshash holatlar uchragan, o'zi uchun xavfli deb hisoblagan vaziyatdan himoyalanihga harakat qiladi. O'smirda ijtimoiy muhitdagi insonlar bilan yaqin emotsional munosabatlar o'rnatilmaganligi, o'zini himoyasiz qo'rqqoq bo'ladilar. Odatda, ularda o'z-o'ziga past baho berish, o'zlarini ko'rimsiz, kuchsiz deb baholash kuzatiladi. Ularga nisbatan tajovuz jarayonida yig'laydilar, qochadilar. Xulosa qiladigan bo'lsak, o'smirni yosh bola sifatida qabul qilsakda, unda kattalarga xos sifatlar shakllanganligini hisobga olib, uning fikrlarini, qarashlarini, hohishlarini, takliflarini e'tiborga olish muhimligini esimizdan chiqarmasligimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Fromm E. *Anatomiya chelovecheskoy destruktivnosti*. – M., 1994. –S. 126. 10.
2. Shoumarov G'. B. *Oila psixologiyasi*. – T.: «O'qituvchi», 2000. –24, 43-b.
3. Malikaxon Qodirova, **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH** , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): *Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari*
4. Malikaxon Qodirova, **MAHIFUJLOTLAR VA ULARNING BO'LA IDROKINI SHAKLLANISHIDAGI A'AMIAITI** , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): *Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari*
5. Malikaxon Qodirova, **O'SMIRLAR PSIXOLOGIIYASI VA O'SMIR XULQATVORINING O'ZIGA HOSLIGI** , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): *Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari*